

XUDOYBERDI TO'XTABOYEV ASARLARIDA NOKONSTRUKTIV BIRLIKLARNING IFODALANISHI

Termiz davlat universiteti talabasi
G'affarova Gulbahor
Ilmiy rahbar: Dilrabo Ergasheva

Anotatsiya: Maqolada tilshunoslikdagi nokonstruktiv birliklar ya'ni undalma, kirish so'z, kiritma qurilmalariga Xudoyberdi Toxtaboyevning asarlari misolida namunalar keltirildi, ularning gapdagi o'rnini batafsil izohlab berildi.

Annotation: In the article, examples of non-constructive units in linguistics, i.e. impulse, preposition, input device, were given on the example of the works of Khudoiberdi Tokhtaboyev, and their place in the sentence was explained.

Kalit so'z: Nokonstruktiv birliklar, kirish so'z, undalma, kiritma, ega, hol, gap markazi, (Pm), konstruktiv sifat.

Key word: Non-constructive units, introductory word, impulse, introduction, possessor, case, center of sentence, (Pm), constructive quality.

Tilshunoslikda nokonstruktiv birliklar sifatida kirish so'z, kiritma, undalmalar kiritilgan. Undalma gap tarkibidagi II-shaxs kishilik olmoshi bo'lgan so'zshakl ma'nosini muayyanlashtiruvchi unsur bo'lib u mantiqan so'z kengaytiruvchisi maqomida bo'ladi. Biroq, u kengayayotgan so'z bilan bog'langanda grammatik aloqaga ega emas. Undalma mazmunan bog'langan so'zshakl nutq yo'naltirilgan shaxs yoki narsa predmetni ifodalaydi. Masalan: Do'stim, ishonganim sensan. Gapida do'stim so'zi nokonstruktiv birlik sifatida keltirilgan sababi "do'stim" so'zi "sensen" so'zini muayyanlashtiryapti.

Kirish kengaytiruvchilari gapning konstruktiv bo'laklari sanalmish ega va hol kabi faqat to'g'ridan to'g'ri gap markazi bilan munosabatga kirishadi, biroq kirish kengaytiruvchilari (Pm)ga grammatik jihatdan bog'lanmaganligi bois unga nisbatan konstruktiv sifatini qo'llab bo'lmaydi. Masalan To'g'ri, yomon odam jazosini tortishi kerak – dedi Saida. Gapida "to'g'ri" so'zi kirish so'z hisoblanadi, gap tarkibidagi birorta so'z bilan o'zaro grammatik munosabatga kirishmaydi.

Kiritma qurilma gap holatida bo'lib, nutqda gapdan anglashilayotgan fikrga qo'shimcha tarzda yangi fikrni bayon etish vositasi. Kiritma kirish gapdan o'zining gaplik mohiyatiga to'la egaligi kirish gap garchi shaklan gap tarzida bo'lsa-da, ko'proq kirish so'z tabiatiga ega bo'ladi, asosiy gap bilan mazmuniy bog'liqlikning o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Masalan, Buvamga (hamma band bo'lganligi uchun) men qarashib turadigan bo'ldim. Gapda keltirilgan "hamma band bo'lganligi uchun" qurilmasi

kiritma gap bo'lib, u asosiy gap bilan grammatik jihatdan bog'lanmasa-da, mazmunan undan anglashilayotgan voqea-hodisaning sababini bildiradi.

Nokonstruktiv birliklarni Xudoyberdi Toxtaboyevning asarlari asosida ko'rib o'tish mumkin.

X. Toxtaboyevning "Besh bolali yigitcha" asaridan nokonstruktiv bo'lakning undalma qismiga namunalar keltirish mumkin. Masalan, Hoy Roziq, sen men bilan ko'p paychakilashaverma, bildingmi?(19-bet) Gapi undalmasi mavjud gapga namuna bo'ladi, sababi insonning fikri qaratilayotgan shaxsni ta'kidlab, aniqlashtirib keltiryapti. Aka, opam menga ukacha tug'ib beryaptimi – shivirlab so'radi (78-bet). Namunada aka so'zi ishtirok etgani uchun undov gap hosil bo'lyapti. Chunki undalma gap boshida maxsus intonatsiya bilan aytiladi. Eshityapsizmi, men bu betiga niqob taqib olgan tentaklarga non berarmishman. (99-bet) Keltirilgan namunada ham so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmet deb tasavvur qilingan voqea hodisani bildiradigan so'z ishtirok etgani uchun ham undalma gapga misol bo'lyapti.

Kiritma qurilmaga namuna keltirilsa, U bejirim tuflisi bilan yemi duk-duk bosib (bu duk-duklardan Qahramonning yuragi go'yo mix qoqilayotganday zirqirab ketdi) mashina tomon yurdi.

Kiritma gap asosiy fikrni qo'shimcha izohlash, aniqlash, toldirish uchun ishlatiladi va o'ziga aloqador bo'lmagan gapdan maxsus to'xtam bilan ajratiladi.

Kirish so'zga E – attang, dedi Parpi buvam bosh chayqab. (X.Toxtaboyev) gapini namuna qilish mumkin. Kirish so'z gap bilan sintaktik bog'lanmagan so'zlar hisoblanadi. U so'zlovchining bayon qilingan fikriga munosabatini ifodalaydi, ya'ni achinishni, quvonchni, fikrning dalillanishini ifodalovchi birlik hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, nokonstruktiv birliklar muloqot jarayonida tinglovchiga fikrning ta'sirli, aniq, ravshan tarzda yetkazishdir. Nokonstruktiv birliklar asosan, badiiy va so'zlashuv uslublarida keng qo'llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ra'no Sayfullayeva "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent-2009 .
2. Nargiza Erkaboyeva "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami" Toshkent-2019.
3. Xudoyberdi Toxtaboyev Besh bolali yigitcha Toshkent «Yangi asr avlodi» 2009
4. [www.ziyonet sayti](http://www.ziyonet.sayti) .
5. [www.arxivuz sayti](http://www.arxivuz.sayti).